



TALABA YOSHLARDA KITOBXONLIK VA MUTOLAA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Babaniyazov Utkirbek Taxirovich

Nukus davlat pedagogika instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13590602>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-avgust 2024 yil

Ma'qullandi: 21-avgust 2024 yil

Nashr qilindi: 30-avgust 2024 yil

KEY WORDS

Kitob, mutolaa, adabiyot, madaniyat, ta'lim, intellekt.

ABSTRACT

Maqolada kitobxonlik va mutolaa madaniyatini rivojlantirishga doir mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va ularning talaba yoshlar ma'naviyatini oshirishga ta'siri tahlil qilindi.

Malumki bugungi axborot asrida intellektual mulk jamiyatning barcha sohalarinining rivojlanishini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Insoniyat tomonidan yaratilgan umumbashariy kashfiyot va innovatsiyalarning asosini intellekt (inson tomonidan yaratilgan g'oya) tashkil etadi.

“Yoshlarimizga munosib ta'lim berish, ularning ilm-fanga bo'lgan intilishlarini ro'yobga chiqarishimiz kerak. Shu maqsadda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishimiz, o'rta va oily o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini, ilmiy va o'quv jarayonlari sifatini tubdan yaxshilashimiz kerak”, - deydi yurtboshimiz. Ta'lim sohasi faoliyatini kitoblarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ta'lim jarayonida o'quvchi ham, o'qituvchi ham bevosita kitob mutolaasiga ehtiyoj sezadi. Bu quvonarli, albatta. Lekin shuni ham alohida qayd etish lozimki, hozirgi kunda aksariyat talabalar asosan ilmiy adabiyotlar, darslik va qo'llanmalardan foydalanayotganlari bois badiiy asarlar mutolaasiga vaqt ajratishga imkoniyatlari cheklanyapti. O'quvchi faqat adabiyot darsida o'qituvchi bergan vazifani bajarish uchungina badiiy asarlarni qo'lga olyapti. Kam o'qishning salbiy oqibatlari juda ko'p: kishida mustaqil fikrlash qobiliyati, voqelikni teran idrok etish, hodisalarga munosabat bildira olish, oq-qorani farqlay bilish ko'nikmalari to'liq shakllanmaydi; milliy madaniyat, tarix va an'analar bilan keng tanish bo'lmaydi; ma'naviy qashshoqlik va ojizlik kelib chiqadi; hayotda muammolarga duch kelganda yechim topishga qiynaladi, o'zini irodasiz sanaydi; savodxonligi past bo'ladi, so'z boyligi kamligi sababli fikrini to'la ifodalab berolmaydi; madaniy nutq uchun qo'yiladigan (aniqlik, to'grilik, mantiqiy muvofiqlik, jo'yalilik, soflik kabi) talablarga mos, kompozitsion jihatdan mukammal matn yaratishda, jumlarlar tuzishda qiyinchiliklarga duch keladi.

Shu boisdan ham har qanday jamiyatda insonning fikrlash malakasi hozirgi kun talabidan kelib chiqqan holda, badiiy, ilmiy va ilmiy-ommabop asarlarni o'qishga nisbatan ijobiy munosabatga ega ekanliklariga bog'liq. Albatta, badiiy, ilmiy va ilmiy-ommabop asarlarni o'qish insonda avvalo fikrlash, tasavvur qilish, ularni tahlil etish kabi qobiliyatlarini rivojlantiradi. So'nggi yillarda O'zbekistonda talaba yoshlarda fikrlash qobiliyatini, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida ahamiyat qaratib kelinmoqda.

O'zbekistonda kitobxonlik madaniyati ko'nikmalarini rivojlantirish, talaba yoshlarda mutolaa madaniyatini tarkib toptirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o'rtasida kitobxonlik darajasini oshirish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirishimiz zarur" deb ta'kidlagani ham bejiz emas. Ushbu muhim g'oyaviy yondashuvdan kelib chiqqan holda mazkur sohada, jumladan, ma'naviy-ma'rifiy tadqiqotlar metodologiyasini tashkillashtirish, ma'naviy taraqqiyot tarixiy-tadrijiy bosqichlari tajribasidan maqsadli foydalanish hamda globallashuv sharoitida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishning ilmiy asoslangan yechimlarini ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Jumladan, O'zbekistonda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqish, infratuzilma va o'quv tizimi, kitobxonlik bilan bog'liq muammolarga samarali yechimlar ishlab chiqish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2020-2025-yillarga mo'ljallangan kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturi to'g'risida"gi qarori loyihasi e'lon qilindi. Unga ko'ra, 2020-2025-yillarga mo'ljallangan kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturi va dasturni 2020-2021-yillarda amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlanadi.

Dasturni amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi. Ularga: kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda moddiy-texnik bazasini takomillashtirish; xalqimiz, avvalo, yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak sifat bilan chop etish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlarni belgilash; joylarga, ta'lim muassasalariga vaqtida va maqbul narxlarda kitob yetkazish tizimini tubdan takomillashtirish choralari ko'rish; milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalarini tarjima qilish, mutolaa madaniyatini yuksaltirish bilan bog'liq muhim masalalarni hal etishga qaratilgan tizimli ishlarni tashkil etishning huquqiy asoslarini yaratish; ta'lim muassasalari va hududiy kutubxonalarni markazlashgan kutubxona – "Yagona elektron kutubxona" loyihasi asosida birlashtirishga qaratilgan tashkiliy chora - tadbirlarni belgilash; hududlar, aholi punktlarida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan aniq mexanizmlar ishlab chiqish; har yili yosh ijodkorlarning innovatsion loyihalarini amaliyotga joriy qilish orqali mamlakatimizga kiritilayotgan investitsiyalardagi yosh ijodkorlarning ulushi oshirishini ta'minlash; o'quvchilarning qiziqishini o'rganish, sotsiologik so'rovlar o'tkazish orqali kitob mahsulotlari ishlab chiqishni yo'lga qo'yish; kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kitoblarni, ayniqsa, bolalarga mo'ljallangan adabiyotlarni chop etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari belgilash, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan loyiha va tanlovlarni tashkil etish kabi yo'nalishlar shular jumlasidandir.

Prezidentimiz tashabbusi bilan ilgari surilgan 5 muhim tashabbusni talaba-yoshlar orasida keng targ'ib qilish, ularning bo'sh vaqtlaridan samarali foydalanish, shuningdek, qishki ta'tilda dam olish kunlarini ham mazmunli o'tkazishni yanada orttirish, kitobxonlik va kitob mutolaasiga samarali jalb etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuqoridagi fikrlarimiz tasdig'i sanaladi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, kitob va kitobxonlik har qanday kasbdagi, har qanday yoshdagi inson uchun umr yo'llarini yorituvchi so'nmas nur, hayotiga mazmun baxsh etuvchi saodat manbayi, unga har qanday vaziyatda ham hamroh bo'luvchi sodiq do'st hisoblanadi. Insonning ma'naviy kamolotini ta'minlashda kitob singari kuchli qudratga ega vosita yo'q.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2021.

2. O'zbekistonga jadal islohotlar sur'atiga mos ilg'or kadrlar kerak. – "Xalq so'zi", 2018-yil 19-dekabr, 262-son.
3. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 4 jild. Toshkent: "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2002.



**INNOVATIVE
ACADEMY**